



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 26-aprel, shanba,
49 (24.075)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yer -
xazina,
mehnat
uning kaliti

O'ZBEKISTON – TURKMANISTON: TARIXIY MUSHTARAKLIKDAN YORQIN UMUMIY KELAJAK SARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov 23-24-aprel kunlari tashrif bilan Samarqand shahrida bo'ldi.

Tashrif doirasidagi asosiy tadbirlar 24-aprel kuni bo'lib o'tdi. “Buyuk ipak yo'li” majmuasi Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov tor doirada va rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o'tkazdilar.

O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rta-sidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Barcha darajalarda samarali muloqot olib borilmoqda. Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari, Ishbilarmonlar kengashi, Hududlar forumi, madaniyat kunlari, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. O'tgan yili o'zaro tovar ayir-boshlash hajmi 1,1 milliard dollarni tashkil etdi. Poytaxtlarda savdo uylari ochilib, yuk tashish hajmi oshmoqda. Yaqin yillarda tovar ayirboshlashni 2 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida o'zaro manfaatli kooperatsiya rivojlanmoqda. Birgalikda “Shovot-Toshvuz” chegaraoldi savdo zonasi tashkil etilmoqda.

O'zbekiston va Turkmaniston yetakchilari mintaqaviy sheriklikka doir masalalar, shu jumladan, “Markaziy Osiyo plus” formatidagi bo'lajak sammitlar va Toshkent shahrida o'tkaziladigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan fikr almashdilar.

Uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti Turkman xalqining milliy yetakchisiga uning qalamiga mansub “Tafakkur gavhari” kitobining o'zbek tilidagi nusxasini topshirdi. Ikki tomonlama muzokaralar yakunida

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga O'zbekiston Respublikasining yuksak davlat mukofoti – “Oliy Darajali Do'stlik” ordenini tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari mukofotni topshirar ekan, Gurbanguli Berdimuhamedovning qardosh mamlakatlarimiz o'rtasidagi an'anaviy do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashdagi ulkan xizmatlarini e'tirof etdi.

Gurbanguli Berdimuhamedov ko'rsatilgan yuksak hurmat va ehtirom uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev va o'zbek xalqiga minnatdorlik izhor etdi.

Rasmiy tadbirlar yakunlangach, Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov Kongress markazining Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda eman daraxtini ekdilar. Samarqanddagi xalqaro turizm markazida tashkil etilgan “Zamonlar sado-si” ko'rgazmasiga tashrif buyurdilar.

Hech shubhasiz, Turkman xalqi milliy yetakchisining mamlakatimizga tashrifi va davlatimiz rahbari bilan o'tkazgan samarali muzokaralari O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishga hamda azaliy qardosh o'zbek va turkman xalqlarining do'stona aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan tarixiy ahamiyat kasb etadi.

O'ZA.



Turkmaniston Respublikasi bosh muftiysi Yalkap Xo'jaguliyev:

- Samarqandning tarixiy obidalari, muqaddas qadamjolarini ziyorat

qilib, mahalliy aholi va sayyohlarning kayfiyatiga qarab xursand

bo'ldim. Samarqandda Madina shahrining havosini his qildim.

Мамлакатимизнинг нархлари тез ошиб бораётган хориж дори воситаларига боғлиқлиги юқори даражадалигича қолмокда, қўриб 1,5 миллиард долларлик дори воситалари бозорида маҳаллий маҳсулотлар улуши бор-йўғи 19 фоизни ташкил этади.

Вилоятимизда ўтган йили 54 та корхона томонидан 383 миллион долларлик дори воситалари ва тиббиёт буюмлари импорт қилинган ва бу 2023 йилга нисбатан 13 фоизга ошган.

Жорий йил январь-февраль ойларида 79,1 миллион долларлик маҳсулот импорт қилиниб, ўтган йил мос даврига нисбатан 4,5 миллион долларга ёки 6 фоизга кўпайган. Ушбу кўрсаткич вилоят импортининг 23 фоизини ташкил қилади. Шунинг ўзиёқ дори воситалари ва тиббиёт буюмлари ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш қанчалик муҳимлигини кўрсатади.

2024 йилда 36 та фармацевтика корхонасидан 15 таси ҳисобот топширган ва 195 миллиард сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилганигини кўрсатган.

5 та корхона томонидан 340,1 минг долларлик махсу-

Дори воситаларига умид хориж бозоридан бўлмаслиги керак

ВИЛОЯТ ҲОКИМЛИГИ ТОМОНИДАН ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН САЪЙ-ҲАРАКАТЛАР ШУНГА ҚАРАТИЛГАН

лот экспорт қилинган бўлса-да, бу 2023 йилга нисбатан 12 фоизга камайган.

2024 йил инвестиция дастурида биронта лойиҳа ишга туширилмаган. Жорий йилда эса фақат Булунғур тумани 71,5 миллион долларлик иккита - "Yangi Osiyo xalqaro biofarmasevtika" масъулияти чекланган жамиятининг био-препаратлар тайёрлаш, "Usmonov Baxtiyor" яқка тартибдаги тadbirkorнинг шприц, гемодез ишлаб чиқариш лойиҳаларини тақдим этган, холос.

Қолган туман ва шаҳарларда 2025 йил учун фармацевтика йўналишида бирорта лойиҳа тақлифлари тақдим этилмаган.

Хитой Халқ Республикаси дунёда фармацевтика саноати энг ривожланган мамлакат ҳисобланиб, жаҳон фармацев-

тика бозори хомашёсининг катта қисмини етказиб беради. Ҳозирги кунда энг замонавий дори воситалари билан бирга барча турдаги дори воситалари ишлаб чиқарадиган қурилмалар экспорт қилмокда.

Лекин бу мамлакатга охириги ойлардаги хизмат сафарларида шаҳар ва туманлар ҳокимлари, уларнинг инвестициялар ва ташқи савдо масалалари бўйича ўринбосарлари фармацевтика соҳасига бирорта инвестиция олиб келмаган.

Бундан ташқари, вилоятда доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш даражаси ҳам ўта паст. Таҳлиллар асосида Нуробод ва Қўшработ туманларида етиштирилган доривор ўсимликлардаги фойдали элементлар таркиби энг бой, деб топилган. Бас, шундай экан, қайд қилинган туманларнинг ҳокимлари ушбу йўналишда инвесторларни

Олий Majlis Senati a'zosi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori Abdusaid Ko'chimov Urgut tumanida sayyor qabul o'tkazdi.

Tuman hokimligi, Prezident xalq qabulxonasi mas'ullari ishtirokida o'tkazilgan qabulda urgutliklar mahallalar ichki yo'llarini ta'mirlash, maktablar uchun qo'shimcha sinfxonalari qurish va bog'chalar tashkil etish, elektr energiyasi va ichimlik suv ta'minotini yaxshilash, suvultirilgan gaz ballonlarni yetkazib berish va boshqa masalalar yuzasidan murojaat qildi.

Senator sayyor qabul o'tkazdi

Har bir murojaat yuzasidan mas'ullar belgilanib, ularni hal etish choralari belgilandi. Joyida o'rganish talab qiladigan masalalar bo'yicha mutasaddilar oldiga vazifalar qo'yildi.

– Mahallamizdagi ichki yo'llarni ta'mirlash, eskirgan simyog'ochlar-ni almashtirish yuzasidan senatorga murojaat qildim, – deydi Yalpoqtepa mahallasida yashovchi Asli Isrofi-lov. – Shuningdek, mahallamizga yaqin hududda maktab tashkil etish bo'yicha taklifimizni bildirdik. Yo'l va simyog'och masalasi tuman hokimligi tomonidan hal etilishi belgilandi. Maktab masalasi o'rganilib, keyingi yillar dasturiga taklif berilishi aytili.

Qabul davomida A.Ko'chimov Oliy Majlis Senatining yaqinda o'tkazilgan yalpi majlisida muhokama etilgan masalalar, ma'qullangan qonunlar haqida ham so'z yuritib, ularning ahamiyatiga to'xtaldi.

Tadbirda A.Ko'chimov va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi



deputati F.Toshev bugungi kunda aholi tomonidan keng muhokama qilinayotgan to'y va boshqa marosimlarni ixcham, kamxarj qilib o'tkazish yuzasidan o'z fikrlarini bildirdilar. Shuningdek, qabulga kelgan fuqarolarga ijodkorlarning yangi kitoblari taqdim etildi.

Urgutga safari davomida Oliy Majlis Senati a'zosi A.Ko'chimov tuman axborot kutubxona markazida kitobxonlik haftaligi doirasida tashkil etilgan ma'rifiy tadbirda ham ishtirok etdi va kutubxonaga o'z asarlarini sovg'a qildi.

A.ISROILOV.

Amirxon Murodov:

“Faqat g'alaba va Vatanimiz sha'ni uchun kurashdik”

O'zbekiston U-17 o'smirlar terma jamoasi tarkibida yurtimiz sharafini himoya qilgan futbolchilar orasida paxtachilik Amirxon Murodov va oqdaryolik Faridjon Abdullayev ham bor.

FARZAND YUTUG'I - OTA-ONA UCHUN ENG KATTA BAXT

Amirxon Murodov 2008-yilda Paxtachiy tumanining Dobusqal'a mahallasida tug'ilgan. Tumandagi 35-umumta'lim maktabida tahsil olgan. 2018-yildan futbol bilan shug'ullanishni boshlagan. Amirxonni o'zi tug'ilib o'sgan mahallada va tahsil olgan Samarqand futbol akademiyasida ham tantanali kutib olishdi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirlarda tuman hokimligi va viloyat sport boshqarmasi mas'ullari, chempionning oila a'zolari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Chempionning shijoati, yutuqlari, ota-onasi va ustozlarining xizmatlari alohida e'tirof etildi.

- O'g'lim yoshligidan matematika va ingliz tili faniga qiziqardi, - deydi Amirxonning onasi Hilola Xolmurodova. - O'qituvchi bo'lganim uchun o'zim ham o'g'limning ko'proq ilm o'rganishini istardim va doim nazorat qilardim. Lekin u futbolga mehr qo'ydi. Otasi bilan kelishib, futbol to'garagiga berdik. Tumandagi sport maktabi murabbiyi Shohruh Bobosheroev qo'l ostida shug'ullanib, Samarqand futbol akademiyasiga qabul qilindi. O'shanda o'g'lim Islombek Ismoilov e'tiboriga tushib, dastlab "Paxtakor" futbol akademiyasiga, keyin U-17 terma jamoasiga chaqirildi.

Amirxon Murodov mezbonlarga qarshi final o'yini va 9 kishi bo'lib qolishganidan keyin murabbiyning tanaffusda nimalar degani haqida gapirib berdi.



- Jamoadoshlarimiz bilan har bir o'yinda faqat g'alaba va Vatanimiz sha'nini munosib himoya qilish uchun maydonga tushdik, - deydi futbol bo'yicha U-17 terma jamoasi a'zosi, markaziy himoyachi Amirxon Murodov. - Birinchi bo'limda ikkita chetlatishdan keyin ham o'zimni yo'qotmadik. Tanaffusda bosh murabbiy "Yigitlar, o'yinni qutqara olasizlarmi, bizga butun O'zbekiston ko'z tikib turibdi. Men sizlarga ishonaman, siz g'alabaga haqlisiz", dedi. Biz ham oxirgi daqiqalargacha O'zbekiston uchun faqat g'alaba qozonamiz va buni uddalaymiz deb va'da berib, amalda isbotladik. Endi noyabr oyida Qatarda o'tkaziladigan jahon chempionatiga tayyorgarlikni boshlaymiz va eng yaxshi natijalar, yorqin g'alabalar uchun maydonga tushamiz.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

топиб, лойиҳалар устида ишлашлари зарур.

Умуман олганда, вилоятда фармацевтика соҳасида импортни мақбуллаштириш ўз холига ташлаб қўйилган. Негаки бунақа имконият бошқа вилоятларда бўлмаслиги мумкин – энг йирик импортёрлар Самарқандда бўлса-да, ишлаб чиқарувчилар санокчи. Бу ҳудудлар раҳбарларининг эътиборсизлигидан бошқа нарса эмас.

Шу боис вилоят ҳокимлигида ўтган йиғилишда дори воситалари ва тиббиёт буюмлари ишлаб чиқаришни кенгайтириш, импорт қилинаётган дори воситаларини маҳаллийлаштиришни чуқурлаштириш борасида жиддий ўзгаришлар қилиш бўйича аниқ вазифалар белгиланди. Хусусан, инвестициялар, саноат ва савдо бошқармаси, туманлар, шаҳарлар ҳокимлари икки ой муддатда ҳудудлардаги ҳар бир импортёр билан дори воситалари ва тиббиёт буюмлари ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш бўйича камида 2 тадан лойиҳа тақлифлари ишлаб чиқиши белгиланди.

Вилоят молия ва иқтисодиёт бошқармасига фармацевтика соҳасидаги давлат рўйхатидан ўтган 28 та фаолият кўрсатмаётган корхонанинг ишламаётганлиги, 2024 йилда 36 та фаолият кўрсатаётган корхоналардан 20 таси статистик ҳисоботларни топширмаганлиги сабабларини ўрганиш вазифаси топширилди.

Ё.МАРҚАЕВ.

Bozorlarda korrupsiya bo‘lmasligi zarur

Viloyat prokuraturasi tashabbusi bilan “Sam-bozor” (raqamli bozor) dasturi amaliyotga joriy qilinib, sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda raqamli “elektron aloqa” tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Xo‘sh, nega bu yangilikka qo‘l urildi? Viloyatda 47 ta bozor, 12 ta savdo kompleksi mavjud bo‘lib, ularning asosiy ulushdori hokimlik bo‘lsa-da, soha hokimlik, soliq inspeksiyalari va boshqa mutasaddilar etiboridan chetda qolgan. Bozor va savdo komplekslarida sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlab, ularni bartaraf etish imkoniyati yo‘q. Misol uchun, “Past Darg‘om meva-sabzavot” mas‘uliyati cheklangan jamiyatida 2024-yilning 9 oyida 11 ta jinoyat sodir etilgan.

Savdoni amalga oshirish va bir martalik yig‘imlarni yig‘ishda onlayn nazorat kassa-mashinalari, to‘lov terminali, bank plastik kartasi qo‘llanilmasdan, naqd puldan, soxtalashtirish mumkin bo‘lgan eskicha - “patta”lardan foydalanilmoqda.

Tadbirkorlar yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjatga ega bo‘lgani holda savdo faoliyatini amalga oshirishi, ushbu jarayonda qonuniylikka mas‘ul soliq inspeksiyasi xodimlari bo‘lsa-da, mutasaddilar o‘z vazifasini lozim darajada bajarmaganligi oqibatida rasmiy ro‘yxatdan o‘tmasdan yoki guvohnomasini to‘xtatib, tugatib ishlash odat tusiga kirgan.

Belgilangan joylardagina savdo qilish, bir martalik yig‘imni to‘lash tartibini buzuvchi shaxslarga nisbatan jarimalar qo‘llash lozim bo‘lsa-da, aksariyat hududlarda bozorga kirish joylarida ko‘cha savdosi avj olgan.

Do‘konlarning aksariyatida mulkdorlar emas, ular bilan og‘zaki kelishuvi mavjud bo‘lgan tadbirkorlar faoliyat olib bormoqda. Oqibatda ijara shartnomalari soliq idoralaridan ro‘yxatdan o‘tmasdan, budjetga tushishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha manbalar yo‘qotilmoqda.

Tadbirkorlardan to‘lovlarni oyma-oy undirish imkoni bo‘lmayotganligi, ular belgilangan me‘yordan ortiq iste‘mol uchun oshirilgan miqdordagi to‘lovlar to‘lamasligi bozor zarariga ishlashi bilan bir vaqtda korrupsiyaga yo‘l ochmoqda. Energiya tejovchi va qayta tiklanuvchi uskunalar o‘rnatilmaganligi oqibatida tushumlarning katta qismi elektr energiyasi uchun sarflanmoqda.

Umuman, viloyatdagi bozorlarning 51 foiz ulushi mahalliy hokimliklarga tegishli bo‘lsa-da, tushumlar va harajatlarni nazorat qilib, bu haqda hokimliklarga hisobot topshirish mexanizmi yo‘q.

Nazoratsizlik oqibatida sanitariya holati, hududni obodonlashtirish va yong‘in xavfsizligi talablariga mutlaqo rioya qilinmayapti.

Muammolarni bartaraf qilish maqsadida birinchi navbatda sohaga mas‘ul idoralardan ishchi guruh tashkil qilinib, qonun buzilishi holatlari nisbatan ko‘p bo‘lgan Past Darg‘om tumanidagi bozorlar tanlab olindi.

Bozor va unga tutash hududlardagi 40 dan ortiq noqonuniy qurilmalar buzdirilib, 8500 kvadrat metr qismi betonlashtirildi. 6 kilometr ichki yo‘larga asfalt qoplamasi yotqizilib, 2 avtoturargoh barpo qilindi. 2 ta transformator va 10 kilometr elektr tarmog‘i

ta‘mirlanib, 20 ta tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi, mavjud 152 ta do‘kon alohida abonent sifatida tuman elektr tarmoqlari korxonasi bilan shartnoma tuzdi.

Ma‘muriyat uchun 53 kVt akkumulyatorli quyosh paneli o‘rnatilib, to‘liq energiya mustaqilligi ta‘minlandi. Natijada bozor mart oyida o‘z iste‘molidan ortgan 1500 kVt elektr energiyasini davlatga sotdi.

Asosiysi, Milliy gvardiyaning “tashvish nuqtalari” o‘rnatildi va bozor hududi to‘liq kamera nazoratiga olinib, IIBga integratsiya qilinishi natijasida 2024-yilning oktyabr oyidan buyon “jinoyatdan xoli hudud”ga aylandi.

Bozor faoliyatini raqamlashtirish maqsadida “Real Soft” dasturlash kompaniyasi vakillari bilan hamkorlikda “Sam - bozor” dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi.

Dasturga kirishdayoq ham ovozi ko‘rinishda, ham yozma ko‘rinishda foydalanuvchilar bozorlarda xizmat ko‘rsatish va savdo qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilib, profilaktika qilinadi.

Mazkur dastur 12 ta bo‘limdan iborat. Ma‘lumotlarni kun, oy va yil ko‘rinishida ko‘rish, ularni yuklab olish imkoniyati yaratilgan.

Bozorda yurist shtati bo‘lmaganligi sababli dasturni kadastr idorasi ma‘lumotlari bilan integratsiya qilish orqali do‘kon egalari bilan onlayn shartnoma rasmiylashtirilib, muddatida amalga oshirilmagan to‘lovlar bo‘yicha birinchi oyda mulkdorga avtomatik ogohlantirish xati berilishi, ikkinchi oyda esa da‘vo arizasi shakllantirilishi ta‘minlandi.

Bozor hududiga o‘rnatilgan 27 ta kameraga sun‘iy intellekt orqali har bir savdo o‘rnining o‘lchami kiritilib, tadbirkor qancha joyga mahsulot qo‘yganligi va qancha joyga to‘lovni amalga oshirganligini kuzatish bilan bir vaqtning o‘zida qanday turdagi mahsulotni sotayotganligini aniqlash imkoniyati bor.

“Sam-bozor” dasturida ro‘yxatdan o‘tgan xaridorlarga olgan mahsuloti uchun to‘lovlarni elektron tarzda amalga oshirish, sotuvchilarga esa bozor ma‘muriyatiga “patta to‘lovlari”ni onlayn to‘lash imkoniyati yaratildi. Bozor hududidan joy olmoqchi bo‘lgan sotuvchilarning YTT guvohnomasi faol holatda ekanligiga e‘tibor qaratiladi.

Savol tug‘ilishi tabiiy – nimaga erishildi? Bozordagi qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar soni 150 nafarga ko‘payib, 670 taga yetdi.

Ijara to‘lovidan hosil bo‘lgan 74 million so‘m muddati o‘tgan qarzdorlik bartaraf qilindi.

Asosiysi, 2024-yilning fevral oyida 181 million so‘m tushumlar bo‘lgani holda joriy yilning mos davrida bu raqam 283,3 million so‘mga yetdi. Soliq to‘lovlari o‘rtacha oylik ko‘rsatkichi 34,6 million so‘mdan 70,8 million so‘mga oshdi.

Yaqinda Past Darg‘om tumanida bozorlarda xizmat sifatini yaxshilash va “korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish” yuzasidan o‘tkazilgan seminarida mutasaddilarga yuqoridagilar haqida batafsil ma‘lumot berildi. Qolgan hududlardagi bozorlarni korrupsiyasiz sohaga aylantirish, ushbu illatga murosasiz muhitni shakllantirish, korrupsion holatlarni keltirib chiqaruvchi omillar, sabablar hamda “tuyruk”larni bartaraf etish bo‘yicha mas‘ullarga aniq topshiriqlar berildi.

Viloyat prokuraturasi
axborot xizmati.



Qizamiq hamon xavfli xastalik

Qizamiq virus qo‘zg‘atadigan o‘ta yuqumli va og‘ir kasalliklar toifasiga kiradi. Unga qarshi vaktsina 1963-yilda joriy qilingan bo‘lib, shunga qadar qizamiqning yirik epidemiyalari ruy berib turgan va bu har yili dunyoda 2,6 million nafargacha odamning o‘limiga sabab bo‘lgan. U ayniqsa, emlanmagan bolalar hamda homilador ayollar uchun juda xavfli hisoblanadi.

Qizamiq virusi havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi, shilliq pardalarni shikastlantiradi. So‘ng butun organizmga tarqaladi. Umumiy intokikatsiya, tana haroratining ko‘tarilishi, konyuktivit, yuqori nafas yo‘llari yallig‘lanishi va terida o‘ziga xos bosqichma-bosqich, dog‘li-papulyoz toshmalar toshishi bilan kechadi. U bilan kasallangan bemor yo‘tal-ganda, aksirganda, gaplashganda kasallik qo‘zg‘atuvchi viruslar havo oqimi bilan uzoq masofalarga tarqalishi mumkin. Qizamiq bilan og‘rigan bemor 8-10 kun davomida atrofdegilar uchun virus tashuvchi hisoblanadi. Uning asorati xavfli bo‘lib, zotiljam, ensefalit, kardiit va o‘lim bilan yakunlanishi mumkin.

Respublikamizda milliy emlash kalendariga muvofiq, bolalarni qizamiqqa qarshi rejali profilaktik emlash ular 1 va 6 yoshligida amalga oshiriladi. Kasallanish holatlari ko‘paysa, xavf guruhlarini qo‘shimcha dozada emlash tavsiya etiladi. Viloyatimizda qizamiqqa qarshi epidemiologik vaziyat barqarorligini ta‘minlash maqsadida bolalar 6 oyligidan boshlab, shuningdek, emlanmasdan qolgan yoki bir marotaba emlangan 30 yoshgacha bo‘lgan aholi qizamiqqa qarshi monovalentli vaktsina bilan emlanmoqda. Qizamiq yuqtirganlikda shubha qilingan shaxslar bilan muloqotda bo‘lganlar epidemiologik ko‘rsatma asosida profilaktik emlash bilan qamrab olinishi, bemorlar tanasida toshma toshsa, 5 kungacha, asoratlilar bo‘lganda esa 10 kungacha izolyatsiya qilinishi kerak. Tartibga ko‘ra, kasallik uyushgan jamoalarda aniqlansa, ular 21 kunlik karantingga olinadi.

Latif RUSTAMOV,
viloyat sanitariya-
epidemiologik osoyishtalik va
jamoat salomatligi boshqarmasi
boshlig‘i vazifasini bajaruvchi.



Raqobatni rivojlantirish hududiy boshqarmasi tomonidan o‘tgan yil iste‘molchilar foydasiga qayta hisob-kitob qilingan 15,8 milliard so‘m mablag‘ undirib berildi.

Ko‘rsatilmagan xizmatlar uchun haq olingan bo‘lsa, iste‘molchiga qaytariladi

Masalan, fuqaro A.Axodov uy sotib olganligi hamda oldi-sotdi vaqtida kommunal to‘lov (elektr energiya)dan qarz yo‘qligi ma‘lum bo‘lsa-da, oradan 1 oy vaqt o‘tib, 10 million so‘m qarzdorlik mavjud ekanligidan norozi bo‘lib murojaat qilgan.

O‘rganishda fuqaroga asossiz qarzdorlik hisoblangani aniqlangan. “Hududiy elektr tarmoqlari” Aning viloyat hududiy filialiga huquqiy tushuntirishlar berilib, iste‘molchini qarzdorligi bekor qilindi.

Boshqa misolda fuqaro N.Maksimova murojaat qilib, “N.Q.S” mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi servis kompaniyasi faoliyatidan norozi ekanligi, ko‘rsatilmagan xizmatlar uchun asossiz qarzdorlik hisoblanganligini bildirgan.

Xodimlarimiz tomonidan murojaat to‘liq va xolisona o‘rganilib, asossiz hisoblangan 1,4 million so‘m qarzdorlik bartaraf qilindi.

Umuman, hududiy boshqarmaga o‘tgan yil iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish yo‘nalishi bo‘yicha 2889 ta murojaat kelib tushgan. Jumladan, 1985 ta uy-joy va kommunal, 554 ta savdo va umumiy ovqatlanish, 296 ta aloqa va ijtimoiy xizmatlar, 54 tasi reklama va boshqa sohalar bo‘yicha arz qilingan. Murojaatlarning 2370 tasi qanoatlanirilgan.

Jahongir ASHUROV,
Raqobatni rivojlantirish viloyat hududiy boshqarmasi
boshlig‘i o‘rinbosari.

Nurobod tumanidagi mahallalardan birida istiqomat qiluvchi III-guruh nogironi M.J. bir necha yildan buyon ishsiz bo‘lib, spirtli ichimliklarga ruju qo‘ygan. Ikki nafar voyaga yetmagan farzandi tarbiyasi hamda ro‘zg‘or tashvishlari xotini A.D.ning zimmasida qolgan. Ayol obodonlashtirish sohasida oddiy ishchi bo‘lib ishlaydi. Yetishmovchilik, erining boqibeg‘amligi, kunda, kunora bo‘ladigan janjallar uni kuchli ruhiy tushkunlikka olib kelgan. Vaziyat shu darajaga yetganki, u farzandlari bilan birga joniga qasd qilishni ham o‘ylagan.

Oila kambag‘allikdan chiqishga tayyor bo‘lmasa-chi?..

Keyingi yillarda mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish, og‘ir vaziyatdagi oilalarni qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor ortdi. Jarayonda oilalarga ham moddiy, ham ma‘naviy va psixologik yordam berish choralari ko‘rilmogda. Chunki tajribalar kambag‘allik faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy muammo ham ekanligini ko‘rsatdi. Bunda har bir og‘ir holat alohida yondashuv, e‘tiborni talab qiladi.

Shu bois “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari psixologlari tomonidan og‘ir vaziyatdagi oilalarda individual ishlar amalga oshirilmoqda. Joylarda kambag‘allik muammolarini bartaraf etish bo‘yicha keys menejmentlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Unda ishtirokchilarga ijtimoiy, psixologik, emotsional xizmatlar ko‘rsatilib, kambag‘al oilalarning har bir a‘zosi bilan samarali muloqot yo‘lga qo‘yilishi natijasida muammolarning asl mohiyati aniqlanmoqda.

Birgina tumanimizda bugunga qadar kam

ta‘minlangan oilalarning 120 nafardan ziyod a‘zolariga psixologik xizmatlar ko‘rsatildi. Yuqorida keltirilgan voqea ham shunday oilalardan biriga tegishli.

O‘rganish davomida M.J.ga o‘ziga mos ishlarga taklif qilinsa-da, ishlamaganligi, umuman, hayot tarzini o‘zgartirish maqsadi yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi. Bu esa uning oila a‘zolari taqdirida salbiy aks etmoqda. Psixologik konsultatsiyadan keyin oiladagilarning ruhiy hamda tibbiy holati bilan ishlandi. Kompleks tadbirlar, tushuntirishlardan keyin M.J.da ishlab, oilasiga moddiy yordam berish ishtiyog‘i paydo bo‘ldi. Natijada u ishga kirdi, shu bilan birga, IT sohasiga qiziqishi borligi bois o‘quv markaziga yo‘llanma ham oldi. Hozir oilaning iqtisodiy holati barqarorlashdi. A.D. ham ruhiy tushkunlikdan chiqdi.

Nigora HAYITOVA,
Nurobod tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar
markazi bosh mutaxassis psixologi.

Bugun aksariyat imkoniyati cheklangan bolalar uyida yoki maxsus maktab-internatlarda emas, sog‘lom o‘quvchilar qatorida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida tarbiyalanyapti, bilim olyapti. Bu mamlakatimizda joriy etilgan inklyuziv ta‘lim tizimi imkoniyatidir.

Nogironligi bo‘lgan bolalar sog‘lomlar orasida

o‘zini qanday his qilyapti?



Samarqand shahridagi 81-maktabda imkoniyati cheklangan 8 nafar bola ta‘lim-tarbiya olmoqda.

Ular tengdoshlaridan qolishmasdan, yorqin kelajakka bo‘lgan qat‘iy ishonch bilan harakat qilyapti, - deydi maktab direktori o‘rinbosari Asliddin Ne‘matov. – Birgina rus tiliga ixtisoslashgan 4-sinfda 2 nafar ana shunday o‘quvchi ta‘lim-tarbiya olyapti. Ularga tajribali o‘qituvchi, Xalq ta‘limi a‘lochisi Muhayyo Dehqonova ustozlik qiladi.

Maktabda ushbu o‘qituvchi tomonidan ochiq dars shaklida madaniy tadbir tashkil qilindi.

Imkoniyati cheklangan 2 nafar o‘quvchi 2021-yilda maktabga kelgandi, - deydi M. Dehqonova. – Boshida ularning tengdoshlariga qo‘shilib ketishi qiyin bo‘ldi. Ota-onalar ham juda xavotirda edi. Ularni 4

yil davomida bag‘rimga bosib, ta‘lim berishga harakat qildim va mehrini qozondim. Meni quvontirgan, tadbirni kuzatgan mehmonlar unda ishtirok etgan o‘quvchilarim orasida imkoniyati cheklangan bolalar borligini sezmadmi ham. Ular sog‘lom tengdoshlari qatori she‘r aytdi, qo‘shiq kuyladi va raqsga tushdi. Bu bolalar maktabga kelganidan beri sahnaga birinchi marta chiqishi bo‘lsa-da, o‘zlarini yaxshi tuta oldi.

Bugungi kunda viloyati-mizning 14 ta shahar va tumanlari hududida joylashgan 56 ta maktabda alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan 97 nafar bola o‘qiydi. Bu imkoniyati cheklangan bolalarga sog‘lom tengdoshlari qatorida ta‘lim-tarbiya olib, kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun imkoniyatdir.

Sevara MAMADIYOROVA,
Husan ELTOYEV (surat).

Inklyuziv ta'limning istiqbollari tahlil qilinadi

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi davrida dunyoda sog'lom odamlar va sog'ligida muammolari bo'lgan shaxslar bir auditoriyada birgalikda ta'lim olishmoqda. Jahon ta'lim amaliyotida bu yo'nalish inklyuziv ta'lim deb ataladi. Mamlakatimiz o'quv jarayoni amaliyotiga ham ushbu ta'lim tizimi kirib keldi.

Bugun jamiyatimiz o'z oldiga nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu jarayonning barcha bo'g'inlarida ularning to'laqonli ta'lim olish imkoniyatini amalga qo'llash vazifasini qo'ygan. Bu vazifani amalga oshirishning eng maqbul va samarali yo'nalishi aynan inklyuziv ta'limdir. Inklyuziv ta'lim o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan o'quv jarayoniga ijodiy yondashishni nazarda tutadi. Zero, har bir bola individual yondashuvni talab qiladi, har kim bilim olish va jamiyatda o'z qobiliyatini e'tirof etish huquqiga ega.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning to'laqonli turmush tarzini yuritishi, faol hayot kechirishlari, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy

hayotida ishtirok etishlari, mamlakatimizda inklyuzivlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan siyosatni dolzarb deb bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Joriy yilning 2-3-may kunlari Samarqand davlat chet tillar institutida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan "Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim istiqbollari va imkoniyatlari: muammo va yechimlar" mavzusi-dagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman aynan shu masalalarga bag'ishlanadi. Ingliz tili fakultetining innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasida tomonidan tashkil etilayotgan ushbu anjuman oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning zarurati, bu ta'lim shaklini joriy etishdagi muammo va to'siqlarni aniqlash,

samarali yechimlarni ishlab chiqish, inklyuziv ta'limda ilg'or usullarni joriy etish orqali barcha talabalarga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun teng imkoniyat yaratish masalalari muhokama etiladi.

Anjumanda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida-gi muassasalarning yuzdan ziyod malakali chet tili fani o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Hindiston, Turkiya, Indoneziya, Italiya, AQSh hamda Janubiy Koreya davlatlari universitetlari vakillari ishtirok etishi kutilmoqda.

Umumiy yalpi yig'ilish, shubalar yig'ilishi va kichik guruhlarda qatnashadigan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga sertifikatlar taqdim etiladi.

G.BOLTAKULOVA, Samarqand davlat chet tillar instituti innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasida mudiri.

Sport xabarlari

Taxmina Ikromova uchta medalni qo'lga kiritdi

Bolgariyaning Sofiya shahrida badiiy gimnastika bo'yicha jahon kubogining birinchi bosqichi bo'lib o'tdi.

50 mamlakat sportchilari ishtirok etgan musobaqada O'zbekiston terma jamoasi a'zolari 2 tadan kumush va bronza medallarga sazovor bo'ldi.

E'tiborlisi, turnirning birinchi bosqichida samarqandlik sportchi Taxmina Ikromova bitta kumush va ikkita bronza medalni qo'lga kiritdi.

Shaxmat

Samarqandlik shaxmatchi Afro'za Hamdamova Qozog'istonning Olmaota shahrida o'tkazilgan FIDening mintaqaviy Osiyo chempionati g'olibi bo'ldi.

Afro'za ushbu g'alabasi bilan joriy yil Gruziyada o'tkaziladigan FIDE ayollar jahon kubogida ishtirok etish uchun ajratilgan yo'llanmani ham qo'lga kiritdi.

Velosport bo'yicha mamlakat chempionlari aniqlandi

Samarqand shahrida velosport shosse bo'yicha U-23 yosh toifasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi.

Musobaqada respublikamizning barcha hududlaridan 100 nafar ishtirokchi 20 va 40 kilometr masofada bellashdi.

Yakkalik va guruhlar o'rtasidagi poygalar natijalariga ko'ra, erkaklar o'rtasida Surxondaryo viloyati terma jamoasi shohsupaga ko'tarildi.

Eshkak eshuvchilarimiz mamlakat chempionligi uchun bellashdi

Samarqanddagi eshkak eshish kanalida baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi.

Musobaqa g'oliblari terma jamoaning asosiy tarkibiga, kelgusida o'tkaziladigan xalqaro musobaqalarga saralanib, 2028-yilda Los-Anjelesda bo'ladigan olimpiya o'yinlarida akademik eshkak eshish sportidagi yangi dasturlarni o'zlashtirish vazifasini o'tadi.

"Yosh qutqaruvchi": toyloqlik va paxtachilik yoshlar respublikaga yo'llanma oldi

Samarqand shahrida umumta'lim maktablari va kasb-hunar maktablari o'quvchilari o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" harbiy sport musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Bahslar natijasiga ko'ra, Toyloq tumanidagi 17-umumta'lim maktabining "Qalqon" va Paxtachi tumanining "Yosh qutqaruvchi" jamoalari birinchi o'rinni qo'lga kiritib, musobaqaning respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Bekzod AHMEDOV.

Вилоят соғлиқни сақлаш бошқармасининг бошлиғи бўйлаб ишлаётган пайтда бир кун
Неъмат Исомовичнинг йиғилишида иштирок этдим. Менга бу йиғилиш жуда юмшоқ ўтгандек туюлди, айбдорларга ҳам бақир-чақир қилмади, қаттиқ жазо тайинламади. Кетиш арафасида қадрдоним бўлгани учун йиғилишда бинтизом бузувчиларга сал қаттиқроқ гапиришини тайинлаб, эътироз билдирдим.

– Устоз, мен сизни тушунаман, лекин феълим шунга мослашган-да. Етим ўсганман, қийналиб катта бўлганман, бунинг устига, яхши одамларнинг меҳри туфайли шу даражага етдим. Бундай ўйлаб қарасам, меҳр дегани бу – тугайдиган туйғу эмас экан, - деди у.

Неъмат Хўжаевни 1974 йилдан, у Самарқанд тиббиёт институтида аспирант бўлганидан танирдим. Айниқса, Самарқанд тумани СЭС идорасига раҳбар қилиб тайинлангач, бу ёш олимнинг иқтидори тез юзага чиқди. Неъматжон жуда ташкилотчи инсон экан. Турли анжуманларда, тадбирлардаги фаоллиги, ҳаракатларини кўриб ҳавас қилардик.

Вилоят бош давлат санитар врач ва ундан кейин вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси бошлиғи бўлган даврда эса биргаликда фаолият кўрсатдик. Тиббиётнинг кадрлар тайёрлаш, уларнинг масъулиятини ошириш

Хотира уйғонса гўзалдир



Меҳр тугамайдиган туйғу

масаласидаги долзарб муаммоларни биргаликда ечишга тўғри келди. Шунда мен Неъмат Исомовичнинг чинакам фидойилигини кашф этдим.

У киши эринмасдан ҳар кун итти туманда ахволни ўрганиб, ҳамкасбларига ёрдам бериш чораларини кўрарди. Эҳтимол, шу туфайли бўлса керак, бугун вилоятимиз ҳудудидаги шифокорларнинг жуда кўпчилиги Неъмат Исомович ҳақида илиқ фикрлар билдиради.

Н.Хўжаев ташаббуси билан 2010 йилда Самарқанд вилояти тиббиётининг уч томлик энциклопедияси яратилди. Бу энциклопедия яратилиши баҳонасида юзлаб ҳамкасбларимиз, олимлар тиббиётимиз тарихига оид қимматбаҳо ҳужжатларни йиғишди, уларни ўқиб-ўрганишди, соҳанинг машаққатли йўлидан хабардор бўлишди. Тўғриси айтсам, бу китоблар ўша давр учун чинакам янгилик эди. Қанчадан-қанча марҳум ҳамкасбларимизнинг руҳи шод бўлди. Мухими, жамоатчилик Самарқанд вилояти ҳудудида тиббиёт таракқиётининг босқичларидан хабардор бўлди.

Н.Хўжаевда жуда кўп эзгу хислатларни кўрганман. Биринчиси – марҳум шифокорларни эслаб туриш. Иккинчиси – устозларни зiyorат қилиш, холидан хабар олиш, кўнглини кўтариш. Учинчиси – сафдошлар сафиди бўлиш, қувончу ғамини улар билан баҳам кўра олиш. Тўртинчиси – ёш шогирдларига ғамхўрлик қилиш.



Бундай бағрикенглилик илгари ҳам, ўша даврда ҳам ва ҳозирда ҳам ҳар бир раҳбарнинг қўлидан келар-вермайдиган фазилат. Неъматжон ёру дўстларнинг ҳар бир тадбирида бизларни биргаликда чорлар, давраларимизга қайфият бағишларди. Айниқса, тиббиёт ходимларини қайта тайёрлаш марказида иш олиб борган пайтларида ҳамкасблари билан деярли ҳар ҳафта шифокор одоби, масъулият хусусида кўплаб суҳбатлар қилганига гувоҳ бўлганман.

Неъмат Исомович ҳаёт бўлганида бу йил 75 ёшга тўлган бўларди. Минг афсуски, 2024 йилнинг кузида у киши бандаликни бажо келтирди. Лекин ҳамон Неъмат Исомовични давраларимизда, анжуманларимизда эслаймиз, ёдга оламиз. Бу ҳам инсонга Аллоҳ томонидан бериладиган иноят деб ўйлайман. Руҳи шод бўлсин!

Азамат ШАМСИЕВ, Самарқанд давлат тиббиёт университети профессори.

Ҳаёт мактабида тобланганди

Ургут тумани Муродқишлоқдаги ҳовлилардан бирида учинчи қиз туғилди. Раҳмон ота ва Зайтуна момо қизалоққа Мадина деб исм қўйишди. Фарзандларининг ақлли, билимли қиз бўлиб вояга етишини истаган ота-она исми жисмига мос инсон бўлсин, деб ният қилдилар. Чин дилдан қилинган ният ижобат бўлар экан.

Мадина мактабда аъло баҳоларга ўқиди. Сўнг Самарқанд давлат университетига ўқишга кирди, 1980 йилда француз тили ўқитувчиси мутахассислигини олди. У 1980-1983 йилларда Ургут тумани ёшлар ташкилотиди биринчи хотин-қиз раҳбар бўлди. 1983-1990 йилларда халқ депутатлари Ургут тумани Кенгаши ҳузуридаги вояга етмаганлар билан ишлаш комиссияси масъул котиби, 1990-2003 йиллар туман халқ суди маслаҳатчиси, 2003-2012 йилларда туман халқ таълими бўлими хорижий тиллар услубчиси ва 2012 йилдан умрининг сўнгги кунларигача Ўзбекистон таълим, фан ва маданият ходимлари касабига уюшмаси туман кенгаши раиси вазифасида меҳнат қилди.

Мадина Баротованинг фидойилиги, Ватанга садоқати ва меҳнатга бўлган жонқуярлиги инobatга олиниб, 2014 йилда яна халқ депутатлари туман Кенгаши депутатлигига сайланди.

М.Баротова умрини таълим-тарбияга, ишчи ходимлар учун муносиб меҳнат шароити яратиш, уларни ижтимоий-иқтисодий ва ҳуқуқий ҳимоя қилишга бағишлади. Ўша пайтда юртимизда касбага уюшмалари мутахассислиги бўйича кадрлар етишмас, бу касбнинг сир-асрорларини мукамал ўрганиш, юрт ривожига муносиб ҳисса қўшиш учун ҳаёт мактабини ўташ лозим эди.

Инсон ҳаётининг Аллоҳ белгилаб берган ўз муддати бор. 2020 йилнинг 2 августиди Мадина Баротова оламдан ўтди. Унинг вафоти оиласи, ҳамкасблари, шогирдлари, касбага уюшмалари учун катта йўқотиш бўлди. М.Баротовани яхши билган кишилар хотирасида унинг ёрқин сиймоси бир умр сақланиб қолади.

Ифтихор РАҲИМОВ, Ўзбекистон таълим ва фан ходимлари касабига уюшмаси республика кенгашининг вилоят бўйича масъул ташкилотчиси.



REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyatining 2025-yil 11-apreldagi 2-son qurultoy yig'ilishi qaroriga asosan jamiyatning quyidagi tuman (shahar) hududiy bo'linmalari faoliyati tugatilmog'ida:

- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 207095268.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Bulung'ur tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 206827993.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Jomboy tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 206953996.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Istixon tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 206977254.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 206997958.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Narpay tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 206932405.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Past Darg'om tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 207018994.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Paxtachi tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 207266505.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Payariq tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 207129548.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Toyloq tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 20712639.
- O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Samarqand viloyati Urgut tumani hududiy bo'linmasi. STIR: 207173352.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Suchkov Yevgeniy Aleksandrovichga (2022-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Xoliqov Mirjalol Nabijon o'g'liga (2024-yil 21-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Xodixonga (2021-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Jurayev Olimjon Jamurotovichga (2018-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Ablakulova Muxaram

Muxamadiyevnaga (2021-yil 20-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Nosirov Rustam Ziyoyevichga (2007-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Manonov Raxmatullo (2012-yil 28-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Tursunova Lola Mamatkulovna (2024-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortigboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Yalfo'ashev Tursunuliga (2019-yil 15-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortigboyev

Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Norqulov Toyirga (2024-yil 5-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Komarova Irina Grigorevna (2024-yil 7-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Kurbanov Muradulla Utkirovichga (2024-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Xalimova Xabibaga (2015-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Salayev Bayram Ilyasovichga (2018-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Mansurov Shokir Sharofovichga (2024-yil 23-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Safarov Abdullaliga (2024-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Sayriyev Sirajiddinga (2023-yil 1-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi "NAVOLI MEXR SAXO-VATI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310633536) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Янги Ўзбекистонда собиқ чор Россияси ва Совет империяси даврида Ватанимиз тарихида катта сиёсий, иқтисодий, маънавий, мафкуравий роль ўйнаган жадидчилик ҳаракатига катта аҳамият берилмоқда. Давлатимиз раҳбари ташаббуси билан мустабид совет даврида қораланган жадидлар, миллат ойдинлари хотирасини абадийлаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Қатағон

қилинган сармақандлик фаоллар

Президентимизнинг 2024 йил 19 июлдаги “Сиёсий қатағон қурбони бўлган юртдошларимиз ҳаёти ва фаолиятини ўрганиш, тарғиб этиш ҳамда уларнинг хотирасини абадийлаштириш борасидаги ишларни кенгайтириш тўғрисида”ги қарори қатағонга учраган юртдошларимиз билан боғлиқ масалаларни ҳал этишда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Қадимий ва ҳамisha навқирон Самарқанд бағри-да кўпплаб жадидлар Ватан озодлиги, мустақиллиги йўлида қурбон бўлди.

1937-1938 йиллардаги қатағон сиёсати туфайли турли тазйиқларга учраган сармақандликларни эсга олишни лозим толдик.

Ҳамро Ҳўжаев – 1897 йилда Самарқанд шахри-да туғилган. Собиқ иттифок коммунистик партияси (ВКП(б) собиқ аъзоси, миллатчи сифатида партиядан чиқарилган. «Миллий иттиҳод» ташкилотининг аъ-зоси, аксилинқилобий ташкилотнинг йиғилишларида мунтазам қатнашганликда, Ўзбекистонни СССРдан ажратиб олиш масалаларини муҳокама қилишда фаол иштирок этганликда айбланган. «Учлик»нинг 1937 йил 14 октябрдаги баённомаси қарори билан олий жазога ҳукм қилинган.

Баҳроуддин Маҳмудов – 1894 йилда Самарқанд шахрида туғилган. «Миллий иттиҳод» ташкилотининг аъзоси. Ҳибсга олингунга қадар адвокатлар коллегия-сида ишлаган. Партия ва ҳукумат тадбирларини дис-кредитация қилишга қаратилган тарғибот юритганлик-да айбланган. «Учлик»нинг 1937 йил 14 октябрдаги баённомаси қарори билан олий жазога ҳукм қилинган.

Мулла Лутфи Раҳматбоев - 1867 йилда Са-марқанд шахрида туғилган. 1927 йил аксилинқилобий фаолияти учун 5 йил қамоққа ҳукм этилган. 1932 йил махсус посёлкага сургун қилинган ва сургун жойидан қочган. 1936 йил чайковчиликда айбланиб, жавобгар-ликка тортилган. Аксилинқилобий-миллатчилик тарғи-боти олиб борганликда, мағлубиятчилик кайфиятини билдирганликда айбланган.

Исмаилов Раҳматуллаев - 1883 йилда Са-марқанд шахрида туғилган. Собиқ жадидлар мактаби эгаси, аксилинқилобий «Миллий иттиҳод» ташкило-ти аъзоси, «Нашри маориф», «Анжумани маориф» аксилинқилобий ташкилотлари филиаллари аъзоси. Ҳибсга олинган вақтда кутубхона мудир бўлган. Аҳоли орасида аксилинқилобий тарғибот олиб борганликда, оғарчилик тўғрисида мишмишлар тарқатганликда айбланган. 10 йил меҳнат тузатув лагерига ҳукм қилинган.

Салоҳиддин Сулаймонов - 1888 йилда Са-марқанд шахрида туғилган. Аксилинқилобий «Мил-лий иттиҳод» ташкилоти аъзоси, босмачилик ҳарака-ти иштирокчиси. 1923 йил Афғонистонга қочиб, 1933 йилда қайтиб келган. Ҳибсга олинган вақтда қолхоз аъзоси бўлиб, аҳоли орасида оғарчилик тўғриси-да мишмишлар тарқатганликда айбланган. 10 йил меҳнат тузатув лагерига ҳукм қилинган.

Қори Зикр Ҳамидбоев - 1870 йилда Самарқанд шахрида туғилган. 1923 йил аксилинқилобий фаоли-яти учун 2 йил қамоққа ҳукм этилган. Аҳоли орасида партия ва ҳукумат тадбирларига қарши қаратилган аксилинқилобий тарғибот олиб борганликда айблан-ган. 10 йил меҳнат тузатув лагерига ҳукм қилинган.

Мирзахол Каримов - 1891 йилда Самарқанд шахрида туғилган. Аксилинқилобий «Миллий ит-тиҳод» ташкилотининг аъзоси, ижроқўм раисини ўлдиришда иштирок этган. Ҳибсга олинган вақтда омбор мудир бўлган. Аҳоли орасида аксилинқило-бий миллатчилик тарғиботи олиб борганликда айбла-ниб, отувга ҳукм қилинган.

Маждид Зокирий – 1897 йилда Самарқанд шахрида туғилган. «Миллий иттиҳод» аксилинқилобий ташкило-ти Самарқанд филиали раҳбарларидан бири, «18 лар гуруҳи»да бўлгани учун қамоққа олинган. Ургант райони маориф бўлими бошлиғи бўлган. Троцкийча тарғибот олиб борганликда, иғвогарликда айбланиб, шахсий мулкларни мусодара этилган ва отувга ҳукм қилинган.

Ҳазраткул Раҳмонқулов - 1889 йилда Жомбой туманининг Жомбой қишлоғида туғилган. Аксилинқи-лобий ташкилот топшириғи билан кўнгилли отрядга қўшилганликда, босмачилар тўдаси билан қочган-ликда, миллатчилик тарғиботини олиб борганликда, миллий адоватни қучайтирганликда айбланиб, 8 йил меҳнат тузатув лагерига ҳукм этилган.

Насриддин Купубоев - 1890 йил Каттақўрғон шахрида туғилган. 1920 йилдан 1924 йилгача ак-силинқилобий «Миллий иттиҳод» ташкилоти аъзоси бўлган. 1937 йил 21 ноябрда 10 йил қамоқ жазосига ҳукм этилган.

Мулла Мардам Қамол - 1884 йилда Кат-тақўрғон тумани Ёрматқўзи қишлоғида туғилган. 1933 йилдан 1936 йилгача «Миллий иттиҳод» акси-линқилобий ташкилоти аъзоси бўлган, босмачилар тўдасига раҳбарлик қилган. 1933 йил аксилинқило-бий ташкилотга мансубликда, совет ҳукуматиға қар-ши мурасасиз душман сифатида айбланиб, аввалига 3 йил, кейин 10 йил қамоқ жазосига ҳукм этилган.

Қўзи Ҳайдарбек Абдусоатов – 1875 йилда Самарқанд шахрида туғилган. «Миллий иттиҳод» аксилинқилобий ташкилоти раҳнаомаларидан бири бўлган. Аксилинқилобий йиғинлар ўтказган, тарғи-бот олиб борган, совет ҳокимиятиға қарши қурашиш-га даъват қилганликда айбланган ва отувга ҳукм этилган. Унга тегишли мол-мулк мусодара қилинган.

Қамолддин Қўсанов – 1880 йил Самарқанд шахрида туғилган. Чор Россияси даврида маҳаллий полиция бошлиғи бўлган. 1916 йилдаги Жиззах қўзғолонини бостиришда иштирок этган. 1920 йил-дан 1924 йилгача «Миллий иттиҳод» аксилинқило-бий ташкилоти аъзоси бўлган. Отувга ҳукм этилган, мол-мулки мусодара қилинган.

Топпилди Раҳмонбердиев – 1884 йил Са-марқанд шахрида туғилган. 1919 йилдан 1926 йилгача «Миллий иттиҳод» ташкилоти аъзоси, Ўз-консервтрест идораси котиби вазиғасида ишлаган. Уйда аксилинқилобий мажлислар ташкил этганлик айби қўйилган. 10 йил муддатга меҳнат тузатув лаге-рига ҳукм этилган.

Абдуазиз Абдуғафоров – 1891 йилда Самарқанд шахрида туғилган. Волост бошқарувчисининг котиби, ҳимоя коллегияси аъзоси бўлган. Аксилинқилобчилар билан алоқада бўлгани, уларни уйда меҳмон қилиб, тарғибот ишларини олиб борганликда айбланган. 10 йил меҳнат тузатув лагерига ҳукм қилинган.

Абдуқарим Абдуҳайилов – 1900 йилда Са-марқанд шахрида туғилган. Катта ер эғасининг ўғли, «Миллий иттиҳод» ташкилотининг фаол аъзоси. Уйи-да аксилинқилобий йиғинлар уюштириб, совет ҳоки-миятиға нисбатан норозилигини ифода қилганликда айбланган. Унга 10 йил қамоқ жазоси берилган.

Тўлибди Ҳўрабоев – 1883 йилда Самарқанд шахрида туғилган. Қўлоқнинг ўғли, «Миллий ит-тиҳод» аксилинқилобий ташкилоти аъзоси. 10 йил қамоқ жазосига ҳукм этилган.

Фахриддин Рўжид Насриддинов – 1878 йилда Самарқанд шахрида туғилган. Ўқитувчилик қилган, «Миллий иттиҳод»га аъзо бўлгани, аксилинқилобий йиғинларда иштирок этгани учун 10 йил қамоқ жазо-сига ҳукм қилинган.

Абдуқодир Шақурий – 1875 йилда Самарқанд шахрида туғилган. Миллатчи ташкилот аъзоси, босмачилар билан алоқаси борликда, уйда акси-линқилобий йиғинларни ташкил этганликда айблан-ган. 10 йил қамоқ жазосига ҳукм этилган.

Зайниддин Насриддинов – 1869 йилда Самарқанд шахрида туғилган. Имомнинг ўғли, «Миллий иттиҳод» аъзоси, иғвогарлик тарғиботи олиб борган деган айб қўйилган. 8 йил қамоқ жазосига ҳукм этилган.

Мулло Қўсанов Саидов - 1897 йилда Кат-тақўрғон шахрида туғилган. «Миллий иттиҳод» акси-линқилобий ташкилотининг аъзоси. 1932 йил 5 йил муддатга қамоққа ҳукм этилган. Миллатчи ташкилот аъзоси сифатида 500 кишидан иборат босмачилар тўдасини ташкил этганликда айбланиб, 10 йил қамоқ жазосига ҳукм қилинган.

Иноят Хидоятбеков - 1897 йилда Каттақўрғон шахрида туғилган. «Миллий иттиҳод» аксилинқило-бий ташкилоти аъзоси, босмачилар тўдасини ташкил этганликда айбланиб, 10 йил меҳнат тузатув лаге-рига ҳукм қилинган.

Икки марта судланган - 1918 йилдан 1924 йилга-ча ВКП(б) аъзоси, диндор сифатида маийш бузуқ-ликда айбланган. 1921 йилдан "Миллий истиклол" аксилинқилобий миллатчи ташкилот Самарқанд фи-лиали раҳбарлиғида бўлган, 10 йил меҳнат тузатув лагерига ҳукм этилган.



Ҳуқм этилган.


Рустамбек ШАМСУТДИНОВ,
тарих фанлари доктори, профессор.
(Давоми бор...)

“Маъносиз дунё не ҳожат, бир келиб кетмоқми бахт?”

Сирожий тахаллуси билан шеърлар битган журналист ва шоир Самариддин Сирожиiddинов 1932 йилда Каттақўрғон туманидаги Кичик кўрпа қишлоғида туғилди.



Ушбу QR код орқали Zarafshon.uz телеграм каналида Самариддин СИРОЖИДДИНОВ сўзи, Илҳом Жўраев ва Санобар РАҲМОНОВА ижросидаги қўшиқни тинглашингиз мумкин.



Дунёга қўш
Дунё ман дунё бўлиб, дунё мени дунёга қўш,
Жилға-жилға қуйларимни мавжи зўр маънога қўш.

Қуйламоқ бўлдим жаҳонни, қуйга тўлсин бу жаҳон,
Неки қалбим зоҳир этмиш, сўзга қўш, маънога қўш.

Маъносиз дунё не ҳожат, бир келиб кетмоқми бахт?
Саргаранг бўлмай мени аҳли жаҳон орога қўш.

Зарра-зарра сингдириб, бор дилга олам меҳрини,
Асра шумлардан ва лекин, яхшию аълога қўш.

Бу жаҳон холи эмасдур фитнадан ё рашқдан,
Берма боғлаб шум рақибга, дўстга қўш, донога қўш.

Мен учун ким ақли доно бирла дунё баркамол,
Баркамоллиқни касб этиб, ижрога қўш.

Баркамол сен бахтим чаман, қилсин ёруғ офтоб йўлин,
Толеини кўркам этгин, тулга қўш, раънога қўш.

Чунки ўйлар бу Сирожий жоно эл бахтини,
Гар тиларсан бахти ёрлик, сен мени дунёга қўш.

Ота ўкинчи

- Ҳа, нега қовоғинг солиқ, тинчликми? - Ишдан қайтган Самандар Назиранинг авзойига қараб, хавотирланиб сўради.

- Тинчликмас, кўчиб ҳам қутилмадик. Ана, уйда отангиз ўтирибди, ҳойнаҳой биз билан ашайман, деб келганга ўх-шайди. Сизда гапи бор экан, менга айтмади.

- Овозингни ўчир, эшитиб қолса, хафа бўлади.

- Эшитса, эшитар, - Назира эрига зарда қилди.

Шовқинни эшитиб, Норқул бува уйдан чиқди.

- Ҳой, ҳой, нима бўлди, бутун домни бошларингга қўта-ряпанлар? - у ўғли билан келинига дашном берди.

Норқул бува пенсияга чиққач, бундай кунларга қоламан, деб ўйламаган эди. Самандар – ёлғиз ўғил. Онаси омонатини топширгач, отасига бутунлай бемехр бўлиб қолди. Хотинининг чизган чизигидан чиқмайди. Норқул буванинг боди кўзиб, қон босими ошганда раҳматли кампири дори-дармон сўраб, халдори ичириб, оёқларини иссиққа ўраб қўярди. Энди бундай ғамхўрлик қиладиган меҳрибони йўқ. Бечо-ра чол келинининг муомаласидан зада бўлиб қолган, юрак ҳовучлаб ўтиради. Назира Самандарнинг қўлоғига қуя-қуя шаҳарга кўчиб кетишга қўндирди.

- Ота, - деди Самандар, - қатнаб ишлаш жонимга теги. Шаҳардан уй олдим, кўчамиз. Сиз ҳозирча шу ерда яшаб турасиз, сал ўзимизни эллаб олгач, олиб кетамиз.

Ўғлининг отасини ёлғиз ташлаб кетмоқчи эканлиги Норқул бувани қаттиқ ранжитди: «Наҳотки бу ўша елкамда опичлаб катта қилган ўғлим бўлса».

- Менга ким қарайди, болам?

- Ҳозирча ўзингиз бир амаллаб турасиз, - деди Назира эрининг гапини маъқуллаб. - Ўзим хабар олиб тураман, ана, қизларингиз, набираларингиз қарашиб туради...

Норқул бува хайҳотдай ҳовлида сўппайиб, ўзи қолди.

Егулик-ичкилик тайёрлашга ҳам холи келмайди. Баъзан оч-наҳор ётади, уйқуси қочади, раҳматли кампири тушларига кириб, долага ачиниб, бошини сарак-сарак қилади, ваҳима босиб, ҳол, деб юборгиси келади.

Бугун азойи бадани қақшаб, игнанинг устида ётгандай инграиб чиқди. Эрталаб Самандарга қўнғирок қилиб, ту-шолмади. Таниш дўхтирлари кўп, олиб борар, деб келганди. Келиннинг гапи суяк-суягидан ўтиб кетди. Лекин сир бой бермади, ўзини эшитмаганга қўли, муддаога ўтди.

- Ўғлим, аҳволим яхши эмас, дўхтирға олиб бор!

- Шуни айтиш учун овора бўлиб келдингизми?

- Ахир телефонни кўтармадинг-да!

- Бугун вақтим йўқ, ота, келинингизнинг ўқаси тўй қиялпти. Ҳозир бозорга тушиб, совға-салом олиб бориши-миз керак. Эртага вақтим бўлса, албатта, олиб бораман. Хоҳласангиз, бугун шу ерда қолинг, хоҳласангиз, уйингизга қайтинг.

Норқул бува ундан ёрдам сўраб келганига пушаймон бўл-ди.

- Майли, хотининг билан тўйга боравер. Мен уйга қайта-ман. Агар малол келмаса, автобусга чиқариб кузатиб қўяр-сан...?

- Ота, айтдим-ку, вақтим йўқ, бозорга борапмиз деб. Ана, нариги кварталга ўтсангиз, қишлоққа кетадиган машиналар бекати бор...

Норқул бува Самандарниқидан қайтгач, туни билан тўлғаниб чиқди. Шу пайтгача энг азиз одамин, деб юрган ёлғиз ўғли ғурурини оёқости қилганди.

Эрталаб дўхтирға ўзи бориб келиш учун йўлга отланди. Ҳассасини тўқиллатиб, оғир-оғир нафас олиб, бекатга етиб келди. "Художон, ўзинг раҳм қил, кўча-кўйда йиқилиб қол-



майин". У ҳолсизланиб, ўриндиққа чўкди. Бекатда ҳеч ким йўқ. Афтидан автобус ҳозиргина келиб кетганга ўхшайди. Ҳассасига сўяниб, хаёлга толди. У Самандардан қаттиқ ран-жиган эди. Ёнига келиб тўхтаган машина хаёлини бўлди.

- Ассалому алайкум, отахон, тузукмисиз, нега бу ерда ўтирибсиз? - ҳайдовчи чаққон келиб, бува билан кўришди.

- Валайкум ассалом, Рустаммисан?

- Норқул бува Самандарнинг жўрасини таниб, қучоғини очди, - Ҳа, қаричилик-да, дўхтирға бир кўришиб келай, деб чиққандим, машина кутиб турибман. - Ҳўш, ўзинг бардамми-сан, келин, неваралар яхшими?

- Яхши, овора бўлибсиз-да, Самандар жўрага айтмаб-сиз-да, физ этиб олиб бориб келарди.

- Иши кўп, безовта қилмайин дедим. Норқул буванинг овози титраб, хўрсинди.

- Ҳўп, унда машинага чиқинг, ишга кетяпман, йўл-йўла-кай поликлиникага ташлаб ўтаман.

Норқул бува дўхтирларга учрашиб чиққач, ўзини анча тетик ҳис қилди. Барака топсин, дўхтир йигит бувани урин-тирмай, зарур врачларни, лаборантларни хонасига чақирти-риб обдон текширди.

- Хавотирли жойи йўқ, отахон, бироз толиқибсиз. Мана бу дориларни ичсангиз, бир ҳафтада отдай бўлиб кетасиз. Саломат бўлинг!

- Раҳмат, ўғлим, умринг узоқ бўлсин! - Норқул бува дўхтир йигитни дуо қилиб, поликлиникадан чиқди. Бекатга қараб борар экан, орқасидан машина келиб тўхтади, қараса Рустам.

- Қалай, отахон? Дўхтирға учрашиб чиқдингизми?

- Ҳа, барака топишсин, обдон текшириб, дори ёзиб бе-ришди, хавотирга ўрин йўқ экан.

- Унда машинага мининг, сизни уйингизга олиб бориб қўяман. Йўлимиз тўғри келиб қолди-да, отахон!

- Сени ҳам уринтириб қўйдим-да, болам. Бахтимга дуч келганингни қара, бўлмаса, анча сарсон бўлар эканман.

Рустам Норқул бувани уйига олиб келди.

- Барака топ, ўғлим, худо омадингни берсин, отангга раҳ-мат! Овора қилдим, узр, ишдан қолдингга.

- Иш қочмайди, отахон. Ҳанимат отахонларнинг дуосини олишдан ҳам зарур иш борми?

- Балли, болам, - Норқул бува Рустамни меҳр билан бағрига босди. Ўз ўғлидан топмаган меҳрни бегона йигитдан топганди.

Тоғаймурод ШОМУРОДОВ.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 653 nusxada chop etildi. Buyurtma 200. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda